

O'zbekiston Respublikasi nomidan  
H U K M

**Protected by PDF Anti-Copy Free**

2022 yil aprel oyining 29 kuni, jinoyat ishlari bo'yicha Qarshi tuman sudi, o'z binosida, ochiq sud majlisida, tuman sudining raisi O.Shukurovning raisligida, sud'ya yordamchisi Niyozovning kotibligida, taraflardan davlat ayblovchisi Qarshi tuman prokuraturasi yordamchisi [REDACTED], sudlanuvchi [REDACTED] va uning himoyachisi [REDACTED] vakili [REDACTED] ishtirokida [REDACTED] nisbatan 1-1802-2201/60-sonli jinoyat ishini ko'rib chiqdi.

Sudlanuvchi [REDACTED], [REDACTED], millati o'zbek, O'zbekiston fuqarosi, ma'lumoti o'rta-maxsus, muqaddam sudlanmagan, oilali, farzandi yo'q, ishlaymaydi, [REDACTED] garov ehtiyot chorasi qo'llangan, ayblov xulosasi nusxasini 2022 yil 7 aprel kuni olgan,

O'zbekiston Respublikasi JK 266-moddasining 2-qismi bilan ayblangan.

Sud, sudlanuvchi, qonuniy vakil va guvohlarning ko'rsatuvlarini tinglab, jinoyat ishi hujjatlarini o'rganib chiqib va ishda mavjud bo'lgan dalillarga baho berib, quyidagilarni

**A N I Q L A D I:**

Sudlanuvchi [REDACTED] 2022 yil 25 yanvar kuni soat 19:10 larda o'zining boshqaruvidagi "NEXIA" rusumli, [REDACTED] davlat raqam belgili avtomashinasini boshqaruv huquqini beruvchi hujjatlar asosida Beshkent shahri yo'nalishi tomonidan Qarshi shahri markazi yo'nalishi tomon boshqarib borayotib, Qarshi tumani "Mirmiron" MFY hududidan o'tgan "Qarshi-Beshkent-Kasbi-Koson" avtomobil yo'lining 4-kilometriga kelganida, amaldagi "Yo'l-harakati qoidalari" ning 77-bandi, ya'ni "Haydovchi harakatning serqatnovligini, transport vositasi va yukning xususiyati hamda holatini, yo'l sharoitini, shuningdek, harakatlanish yo'nalishdagi ko'rinishni hisobga olgan holda transport vositasi tezligini belgilangandan oshirmasdan boshqarishi lozim bo'lganligi" hamda 77-bandi 3-qismi, ya'ni "Harakatlanish vaqtida haydovchi aniqlay olish imkoniyatidagi xavf yuzaga kelsa, transport vositasining tezligini u to'la to'xtashni ta'minlaydigan darajada kamaytirishi yoki to'siqni boshqa harakat qatnashchilari uchun xavf tug'dirmagan holda aylanib o'tish choralari ko'rishi kerakligi" to'g'risidagi yo'l-qoidasi talablarga rioya qilmasdan, ushbu talablarni qo'pol ravishda buzib, mazkur avtomashinani o'z-o'ziga ishonish bilan boshqarib, avtomashina yo'nalishiga nisbatan yo'ning chap tomonidan o'ng tomoniga piyoda yurib o'tayotgan fuqaro [REDACTED] avtomashinasini o'ng old qismi bilan urib yuborib, yo'l-transport hodisasi sodir qilgan.

Oqibatda [REDACTED] hayot uchun xavfli bo'lgan og'ir tan jarohati olib, RSHTYOIM Qashqadaryo filialining "Qabul" bo'limiga borgunga qadar yo'lda vafot etgan.



RSTEIAM Qashqadaryo filialining 22.02.2022 yildagi 32-Murda-sonli xulosasida, marhum [REDACTED] o'limi: "Yopiq kalla miya shikastlanishi, boshda o'ng chakka suyagini asosga o'tib sinishi, ko'krak qafasi a'zolarining yopiq shikastlanishi, o'ng va chap tomonlama ko'p sonli qovurg'alarining siljib sinishi, o'ng o'pka bo'laklarining yorilib yirtilishi" xilidagi oddiy qo'sh ko'p jarohatlarining o'tkir chiki qon ketishi va miya shisha bilan asoratlanib kechishi davrida [REDACTED] olgan o'tkir yurak qon tomir va nafas yetishmovchilidan yuz bergan [REDACTED] asosida "Yopiq kalla miya shikastlanishi, o'ng chakka suyagini asosga o'tirib chakka suyagigacha sinib borishi, miya to'qimalariga, bosh miya qorinchalariga qon qo'yilishi, o'ng chakkada teri ostiga va o'ng chakka mushagiga qon qo'yilishi, ko'krak qafasi a'zolarining yopiq shikastlanishi, ko'krak qafasi o'ng tomondan old qo'ltiq osti chizig'i bo'yicha 2-3-4-5-6-7-8-9-10-qovurg'alarni, o'ng tomondan o'ng kurak chizig'i bo'yicha 3-4-5-6-qovurg'alarni yopiq sinishlari, shu sinish chiziqlari bo'ylab atrof to'qimalariga qon qo'yilishi, o'ng o'pka yuqori va pastki bo'lakchalari old yuzasidan yorilib yirtilishi, o'ng bilak suyagining o'rta uchligidan yopiq sinishi, chap boldir sohasi o'rta uchligi old yuzasida shilinmasi, chap oyoq to'piq sohasi ichki yuzasida shilinmalari, o'ng boldir sohasi yuqori uchligi ichki yuzasida shilinmasi" xilidagi og'ir qo'shma ko'p shikastlanish" ko'rinishidagi jarohatlari aniqlanganligi, ushbu jarohatlar harakatda bo'lgan yengil avtomashinaning piyodani urib yuborishida piyodaning otilib ketib, shikast olgan bosh sohasi bilan qattiq yer qoplamasiga urilishidan olganligi, o'limidan biroz oldin hayotiyli vaqtida vujudga kelganligi, ushbu jarohatlari og'irlik darajasi bo'yicha odatda tirik shaxslarga nisbatan hayot uchun xavfli bo'lgan og'ir tan jarohatlar guruhiga kirishligi, murdasidan olingan qoni tarkibida etil spirti borligi, miqdori 0,98 % (promilli) chiqqanligi, bu mastlik darajasi bo'yicha tirik shaxslarga nisbatan baholanganda yengil darajadagi mastlik holati deb baholanishligi, qonida nasha va opiatlar topilmaganligi, marhum [REDACTED] qoni guruhi AV (II) mansubligi aniqlangan.

[REDACTED] nomidagi RSEM Qashqadaryo viloyat bo'limining 28.01.2022 yildagi 29/01 (228) 13.1Z/295 -sonli ekspertiza xulosasida, ushbu yo'l-transport hodisasi vaziyatida "NEXIA" rusumli, [REDACTED] davlat raqam belgili avtomashina haydovchisi tormoz berish yo'li bilan to'qnashuvni oldini olish texnik imkoniyatiga ega bo'lganligi, "NEXIA" rusumli, [REDACTED] davlat raqam belgili avtomashina haydovchisi harakatlari amaldagi "Yo'l harakati qoidalari" ning 77-bandi 3-qismi talablariga mos bo'lmaganligi ko'rsatilgan.

Sudlanuvchi [REDACTED] sud majlisida aybiga to'liq iqrorlik va pushaymonlik bildirib, o'ziga tegishli bo'lgan "NEXIA" rusumli, [REDACTED] davlat raqam belgili avtomashinasi bilan yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanib kelgani, [REDACTED] kuni butun O'zbekiston bo'ylab elektr toki o'chgan bo'lgani, shu bosdan kechqurun qorong'u bo'lganligi va sevetoforlar ishlamaganligi bois avtomashina boshqarishda biroz noqulayliklar yuzaga kelgani, o'sha kuni kech soat 19 larda boshqaruvida bo'lgan avtomashinasida "Beshkent-Qarshi" avtomobil yo'lining [REDACTED], [REDACTED] hududidan o'tuvchi qismida soatiga 60-70 km. tezlikda



harakatlanib ketayotib, 15 metrlik uzoqlikda yo'lning chap tomon qismidan o'ng tomon qismiga bir kishi piyoda harakatlanib o'tayotganini ko'rib, avtomashina r...lini yo'lning chap tomon qismiga tomon borgan bo'lsa-da, oraliq masofa yaqin bo'lgani uchun yo'lni kesib o'tayotgan piyodani avtomashinasini old old o'ng tomon qismi bilan urib yuborgan, yo'lni kesib o'tayotgan piyoda yo'lga yiqilgani, darhol avtomashinasini to'xtatib, keyinchalik u tanib bilgan [REDACTED] yordam ko'rsatish shifoxonaga olib borgan, biroq [REDACTED] olgan jarohati tufayli shifoxona [REDACTED] ot etgani, marhumning qonuniy vakili va farzandlaridan kechirim so'raganiga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni qoplab berish taklifini bildirgani, biroq ular bu taklifini qabul qilishmagani, qilmishidan pushaymonligi haqida ko'rsatuv berib, suddan yengillik berishni so'radi.

Qonuniy vakil [REDACTED] sud majlisida, marhum [REDACTED] turmush o'rtog'i ekani, 2022 yil 25 yanvar kuni kech soat 20 larda turmush o'rtog'i [REDACTED] "Qarshi-Beshkent" avtomobil yo'lida avtomashina urib yuborganini eshitib, shifoxonaga borganida u yerda turmush o'rtog'i yo'l-ulov hodisasi oqibatida olgan tan jarohati tufayli vafot etganini bilgani, tergov jarayonida turmush o'rtog'i yo'lni kesib o'tayotganida uni sudlanuvchi [REDACTED] o'zining boshqaruvidagi "Neksiya" rusumli avtomashinasini bilan urib yuborganini bilgani, sudlanuvchi va uning qarindoshlari turmush o'rtog'ining dafn marosimlarida ishtirok etib, kechirim so'rashgani va yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni ham qoplab berishlarini bildirishgani, sudlanuvchi [REDACTED] marhum turmush o'rtog'ining bevaqt o'limiga sabab bo'lganligi bois uni kechirmasligi va ish bo'yicha yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlardan voz kechgani haqida ko'rsatuv berib, sudlanuvchiga nisbatan qonuniy chora ko'rishni so'radi.

Guvoh [REDACTED] sud majlisida, 2022 yil 25 yanvar kuni sudlanuvchi P.Beyutov tomonidan sodir etilgan yo'l-transport hodisasi oqibatida otasi I.Xolbozorov vafot etgani haqida ko'rsatuv berdi.

Guvoh [REDACTED] sud majlisida, sudlanuvchi [REDACTED] farzandlari ekanini, 2022 yil 25 yanvar kuni [REDACTED] o'zining boshqaruvida bo'lgan "Neksiya" rusumli avtomashinasida "Qarshi-Beshkent" avtomobil yo'lida yo'l-transport hodisasi sodir qilib, [REDACTED] vafot etishiga sababchi bo'lgani haqida ko'rsatuv berishdi.

Sudlanuvchi [REDACTED] aybi, o'zining aybiga iqrор bo'lib bergan ko'rsatuvidan tashqari, jabrlanuvchining qonuniy vakili va guvohning ko'rsatuvlari, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasi, chizmasi, fotosuratlarini, sudga oid tibbiy va avtotexnika ekspertizalari xulosalari bilan o'z isbotini topdi.

Sud, sudlanuvchi [REDACTED] odam o'limiga sabab bo'lgan transport vositalari harakati va ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzganlikdan iborat jinoiy harakati O'zbekiston Respublikasi JK 266-moddasining 2-qismi bilan to'g'ri kvalifikatsiya qilingan deb hisoblaydi.

Sud, sudlanuvchi [REDACTED] jazo tayinlashda, qilmishiga iqrор va pushaymonligini, shaxsini, oilaviy ahvolini, muqaddam sudlanmaganini jazoni



yengillashtiruvchi holatlar deb topib, jazoni og'irlashtiruvchi holatlar mavjud emas deb topib, qonuniy vakil [REDACTED] da'vosi borligi va unga nisbatan qonuniy chora ko'rishni so'rab turganini inobatga olib, unga nisbatan qonun sanksiyasi doirasida transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilib, ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlashni, ehtiyot chorasini bekor qilib, 10.000.000 so'm garov pulini sudlanuvchi [REDACTED] oila a'zolariga qaytarishni lozim topdi.

Shuningdek, qonuniy vakil [REDACTED] moddiy va ma'naviy zararlar yuzasidan da'vosi yo'q deb topildi.

qonuniy vakil [REDACTED] kelgusida moddiy va ma'naviy zararlar bo'yicha nizo kelib chiqsa, undirish bo'yicha fuqarolik ishlari bo'yicha sudga da'vo ariza bilan murojaat qilish huquqi mavjudligini tushuntirishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 454-457, 463, 465-468, 471, 473-moddalariga amal qilib, sud

#### HUKM QILDI:

Sudlanuvchi [REDACTED] O'zbekiston Respublikasi JK 266-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli deb topilsin.

Unga O'zbekiston Respublikasi JK 266-moddasining 2-qismi bilan 2 yil muddatga transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilib, 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlansin.

Tayinlangan jazo manzil koloniyalarda o'tattirilsin.

Unga qo'llanilgan garov ehtiyot chorasi o'zgartirilib, sud zalidan qamoqqa olinsin.

Jazo muddati 2022 yil 29 aprel kunidan boshlab hisoblansin.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi muddati asosiy jazo muddatini o'tab bo'lingan vaqtdan boshlab hisoblansin.

Ehtiyot chorasi sifatida garovga qo'yilgan 10.000.000 so'm sudlanuvchi [REDACTED] oila a'zolariga qaytarilsin.

Qonuniy vakil [REDACTED] kelgusida moddiy va ma'naviy zararlar bo'yicha nizo kelib chiqsa, undirish bo'yicha fuqarolik ishlari bo'yicha sudga da'vo ariza bilan murojaat qilish huquqi mavjudligi tushuntirilsin.

Hukmdan norozi taraflar hukm e'lon qilingan kundan boshlab, sudlanuvchi va qonuniy vakil esa hukm nusxasini olgan kundan boshlab 20 sutka ichida shu tuman sudi orqali Qashqadaryo viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga apellyatsiya tartibida shikoyat keltirishga yoki prokuror protest bildirishga haqli.

Raislik qiluvchi:

O.Shukurov

